

USMON AZIM LIRIKASIDA TEATR SAN'ATI BILAN BOG'LIQ SHE'RLAR XUSUSIDA

Shaxnoza Sul-tonqulova

Erkin tadqiqotchi

Feruza Sul-tonqulova

PhD, Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10929679>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Usmon Azimning teatr san'ati bilan bog'liq she'rlari, ushbu san'atning ma'naviy hayotimizda tutgan o'rni imiy va badiiy tahlil etiladi.

Tayanch so'zlar: qahramon, teatr, san'at, rol, aktyor, sahna.

Usmon Azim she'riyati mavzu jihatdan rang-barang. Shoir she'rlarida vatan, el-yurt sog'inchi, ishq-muhabbat, tabiat, adolat, haqiqat tarannum etiladi. Xususan, Usmon Azimning san'at haqidagi she'rlari alohida turkumni tashkil etadi. San'at keng ma'noli tushunchadir. Shoir esa bu mavzudagi asarlarida tor ma'nodagi badiiy san'atdan keng ma'nodagi san'atni ifodalashga harakat qilgan. Olim ta'kidlaganidek: "San'at turlari o'zaro dialektik aloqada, bir-birining kamini to'ldirib, boyib-boyitib yashaydi. Jumladan, adabiyot ham boshqa san'at turlari bilan o'zaro tig'iz aloqada ya- shaydi va rivojlanadi. Adabiyot san'atning boshqa turlari rivojiga, o'z navbatida, boshqa san'atlar uning taraqqiyo- tiga ta'sir ko'rsatadi"[1:80].

Usmon Azimning teatr san'ati bilan bog'liq "Teatr", "Rol" "Sufliyor monologi", "Hamlet", "Gladiator" kabi qator she'rlarida sahna va sahna ortidagi jarayonlar, teatr olamidagi voqealar, aktyorlar faoliyati tasvirlanadi. Ijodkor san'atkorning ruhiy holatini so'zlar yordamida chizishga urinadi. Zamonaviy she'riyatda dramatik voqelikni she'r darajasiga olib chiqib, uni lirik pafos bilan ifodalash va kutilmagan xulosaga kelishda Usmon Azimdek darajaga hech kim chiqolmagan.

"Teatr" nomli she'rida san'atning inson ruhiy olami, tarbiyasiga bo'lgan ta'siri, yana bir bor qalamga olinadi.

Bu yerda o'zlari uchun yig'lashmas.

Bu yerda yig'latar birovning dardi.

Bu yerda birovning g'ami muqaddas,

Bu yerda tabarruk o'zganing qadri.[2:98]

Tomosha uchun kelgan insonlar sahnada ijro etilgan asardan ta'sirlanadi. Sahna asari mahorat bilan ijro etilganligi bois tomoshabin o'z dardini unutib qahramon dardiga sherik bo'ladi. Shoir "bu yerda" jumlasini to'rt marotaba qo'llab teatrga alohida urg'u bergan. Spektaklni tomosha qilgan har bir inson o'zining bosib o'tgan hayot yo'lini bir bor ko'z o'ngidan o'tkazadi, uning behuda, besamar o'tganidan achinadi:

Yurak baxsh etmoqchi bo'lar dunyoga,

Qalblarga - xo'rsinmoq uchun bir imkon.

Shoir bu dunyodagi o'tkinchi g'am-tashvishlar, yolg'onlardan charchaganligini, hayot qiyinchiliklaridan biroz yiroq bo'lish, biroz bo'lsa ham unutish uchun teatrga borishini aytadi. Teatrning inson hayotidagi yana bir vazifasi, ya'ni taskin beruvchi funksiyasi namoyon bo'ladi:

Yolg'onchi dunyoning yolg'onlaridan,

Tanim muzlaganda tugaru sabrim,

Teatr, yo haq, deb senga kelurman –

Meni yondira qol birovning dardi

Yuqorida keltirilgan misollarda faqat san'atning jamiyat hayotiga, inson ruhiyatiga ta'siriga e'tibor berilmaydi, balki san'atni yaratayotgan ijodkorning mahoratini ham e'tirof etib o'tadi. Aktyor teatrdan aynan vositachi, ya'ni retsiyent bilan asar muallifi orasida ko'prik vazifasini o'taydi. Bu o'rinda rol ijro etuvchiga katta mas'uliyat yuklanadi. U muallif ijod jarayonida his qilgan tuyg'ularni sahnada ijro qilib berish kerak. Bu o'rinda shoir so'zga xiyonat qilmagan holda qisqa sathlarda keng ma'no ifodalashga harakat qiladi. Teatrda borgan tomoshabin sahnada rol ijro etgan aktyorning o'z obrazini ta'sirchan va ishonchli o'ynaganligidan estetik zavq oladi. Aktyor obrazga singib ketadiki, zalda o'tirgan muxlis uni real hayotda bor deb tasavvur qiladi. Ko'rib turgan voqealaridan olgan xulosasi shu bo'ladiki, hayotda spektakldagi qahramonga havas qilib o'xshagisi keladi, yoki aksincha, u qilgan xatoga yo'l qo'ymaslikka, uning holatiga tushmaslikka harakat qiladi. Har ikki holatda san'atkorning mashaqqatli xizmatining ta'siri ko'zga tashlanadi. Aslida ham san'at qadimdan odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, jamiyat a'zolarini ma'lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va ruhiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Ma'lumki, san'at tushunchasining dastlabki talqini yunon olimi Aristotel [3:537] asarlarida uchraydi. Xulosa qilib aytganda, Usmon Azim she'rlarida san'atning tarbiyalash, fikr ifodalash, estetik zavq berish kabi xususiyatlari bilan adabiyotning vazifasi birlashadi. Shoir san'at haqidagi she'rlarida uning inson hayotida, kishilik jamiyatida tutgan o'rni, vazifalari haqida, ta'sir kuchiyu qalbdan yasaydigan qo'zg'alishlarni yuksak mahorat bilan tasvirlaydi.

References:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademiya nashri, 2018. – 480 b.
2. Азимов У. Сайланма. – Т.: Шарқ, 1995. – 432 b.
3. Sultonqulova, F. (2020). Metaphorical images in Osman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84), 537-539. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS>
4. Sultonqulova, F. (2021). Metaphors of colors in Usman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 02 (94), 350-353. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS>
5. Yuldashev, N.T. (2019). Tradition and novelty in Chulpan poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(80), p.576.
6. Sultonqulova, F. (2022) Усмон Азим шеърлярида фольклоризм асосидаги метафоралар // International Conference "Language and cultures: Prospects for Development in the 21st Century". – p.p. 177-178.
7. Raimova S. (2019) Artistic interpretation of religious and educational issues of Uzbek poetry in the period of independence. (As an example works of A. Aripov, A. Mahkam and A. Uktam) // *ISJ Theoretical and applied sciences*. – № 11 (71). – P. 42-44. Impact Factor: 6.6.
8. Raimova S. (2021) Artistic arts in the works of Asqar Mahkam // *ISJ Theoretical and applied sciences*. – 2021. – № 06. (98). – P. 347-349. Impact Factor: 6.6.
9. Hayitova Yu. Some strikes to the poem of the Shodmonkul Salom. // *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (102), 1033-1036.
10. TO'LIBOYEV, S. (2022). Mustaqillik yillarida o'zbek-turk adabiyot aloqalari. / *Filologik tadqiqotlar Til, adabiyot, ta'lim*. 2023, 4. – 84-85.

11. Xudoymurodova H. (2021 REVIVAL OF THE SPIRIT, PERSONALITY OF THE AUTHOR AND THE REVIEW OF POETICAL THINKING./ Theoretical & Applied Science, 6 (98) 678-682



INNOVATIVE
ACADEMY